

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO AKKREDITIVLAR AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (ASAKABANK MISOLIDA)

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi Biznesni boshqarish (Master of Business Administration-MBA) Banking 23-02-guruhan magistranti
Inoyatova Shohida Yeltayevna*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro akkreditivlar amaliyotining nazariy-huquqiy asoslari, ulardan foydalanishda tijorat banklarining roli va ayniqsa, Asakabank misolida amalga oshirilayotgan akkreditiv operatsiyalari tahlil qilingan. Ushbu moliyaviy instrumentni takomillashtirish imkoniyatlari, raqamli transformatsiya va xalqaro hamkorlik masalalari ilmiy asosda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro akkreditiv, tijorat banklari, Asakabank, tashqi savdo, moliyalashtirish, UCP 600, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретико-правовые основы международных аккредитивов, роль коммерческих банков в их использовании, а также проанализированы аккредитивные операции, осуществляемые на примере Асакабанка. Научно обоснованы возможности совершенствования данного финансового инструмента, вопросы цифровой трансформации и международного сотрудничества.

Ключевые слова: международный аккредитив, коммерческие банки, Асакабанк, внешняя торговля, финансирование, UCP 600, цифровые технологии.

Abstract: This article examines the theoretical and legal foundations of international letters of credit, the role of commercial banks in their use, and analyzes the letter of credit operations carried out using the example of Asakabank. The article scientifically justifies the possibilities for improving this financial instrument, addressing issues of digital transformation and international cooperation.

Keywords: international letter of credit, commercial banks, Asakabank, foreign trade, financing, UCP 600, digital technologies.

Kirish

Xalqaro savdo munosabatlari tobora rivojlanayotgan bugungi kunda ishonchli to'lov vositalaridan biri sifatida akkreditivlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Akkreditivlar vositasida tijorat banklari mijozlar o'rtasidagi to'lovlar kafolatini ta'minlaydi. Bu vosita xaridor va sotuvchi o'rtasidagi ishonchsizlik muammosini hal qilishda qo'l keladi.

O'zbekistonda tashqi savdo hajmi ortib borishi natijasida tijorat banklari, xususan, Asakabank kabi yirik moliyaviy tashkilotlar xalqaro akkreditiv xizmatlarini kengaytirmoqda. Biroq amaliyotda ushbu mexanizmni qo'llashda turli muammolar,

jarayondagi sustlik va texnologik chegaralar mavjud. Shu bois, tadqiqotda akkreditiv amaliyotining huquqiy va institutsional asoslari, Asakabank tajribasi tahlili va takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Tahli va natijalar

Akkreditiv — xaridor (importer) o'z banki orqali sotuvchiga (eksporterga) to'lovni kafolatlaydi, lekin bu to'lov faqat ma'lum hujjatlar (yuborilgan tovar, toifasi, miqdori, vaqtini tasdiqlovchi hujjatlar) taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Xalqaro akkreditivlash jarayoni — bu importchi va eksportchi o'rtasidagi to'lovni banklar orqali kafolatlangan va nazorat qilingan tarzda amalga oshirish jarayoni bo'lib, unda aniq bosqichlar va ishtirokchilar mavjud. Bu jarayon, asosan, UCP 600 (Uniform Customs and Practice for Documentary Credits) xalqaro qoidasiga asosan amalga oshiriladi. Xalqaro akkreditivlash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Taraflar o'rtasida shartnoma tuzish eng asosiy jarayon hisoblanadi. Bunda tarflar ya'ni eksportchi va importchi o'rtasida tovar yoki xizmat yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuziladi. Shartnomada akkreditiv orqali to'lov qilish tartibi kelishib olinadi. Shartlarda akkreditiv turi, amalda bo'lish muddati, talab etiladigan hujjatlar va yetkazib berish shartlari aniq ko'rsatiladi.

Keyingi navbatda akkreditivni ochish (Issuance of Letter of Credit)

- Importchi (xaridor) o'z bankidan (Issuing Bank) eksportchi foydasiga akkreditiv ochishni so'raydi.

- Bank akkreditiv ochadi va uni eksportchining bankka yuboriladi (Advising Bank).

Keyingi o'rinda akkreditivni qabul qilish va tekshirish jarayonida eksportchi o'z banki orqali akkreditiv shartlari bilan tanishadi. Agar shartlar maqbul bo'lsa, tovar tayyorlanadi va yuboriladi. Agar shartlar nomaqbul bo'lsa, o'zgartirish so'ralishi mumkin (Amendment).

Navbatdagi jarayonda esa tovarni jo'natish va hujjatlarni tayyorlashda eksportchi shartnoma va akkreditiv talablariga muvofiq tovarni yuborib, kerakli hujjatlarni (invoys, yuk xujjatlari, sertifikatlar va h.k.) tayyorlaydi.

Hujjatlarni taqdim etish bosqichida eksportchi hujjatlarni o'z bankiga taqdim etadi. Advising Bank ushbu hujjatlarni Issuing Bank'ka yuborish uchun tekshiradi. Hujjatlarni tekshirish va to'lov qilishda Issuing Bank hujjatlarni tekshiradi:


- o Agar hujjatlar akkreditiv talablariga mos bo'lsa — to'lov amalga oshiriladi.

- o Agar xato yoki kamchilik bo'lsa — to'lov rad etilishi yoki eksportchi bilan kelishilgan holda hal etilishi mumkin.

Importchi tovarni qabul qiladi

- Importchi hujjatlar asosida bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiradi va tovarni qabul qiladi.

Asakabank tomonidan 2021–2024 yillar davomida ochilgan akkreditivlar quyidagi diagrammada aks ettirilgan:



Shuningdek Asakabank tomonidan 2021-2024 yillar mobaynida tuzilgan akkreditiv shartnomalari soni va qiymati quyidagi jadvalda keltirilgan:

Yil	Akkreditivlar soni	Qiymati (mln AQSh dollari)
2021	185	224.5
2022	210	251.3
2023	275	289.7
2024	340	355.2

Dunyo amaliyotida akkreditivlardan foydalanishda quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

- Elektron akkreditivlar (e-LC): SWIFT va Blockchain asosida ishlovchi raqamli akkreditivlar;
- Trade finance platformalari: Bolero, Contour, We.trade kabi platformalar orqali avtomatlashtirilgan hujjat aylanmasi;
- Ekologik va “yashil” akkreditivlar: YEVRO ittifoqda “ustuvor sektorlar” uchun maxsus loyiҳalar moliyalashtiriladi.

Xulosa

Xalqaro akkreditivlar — bugungi globallashuv sharoitida tashqi savdo munosabatlarining ishonchli va samarali to‘lov vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular tashqi iqtisodiy operatsiyalarda taraflar o‘rtasidagi xavflarni

minimallashtirish, to‘lovlar kafolatini ta’minlash va savdo jarayonlarini shaffoflashtirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston tijorat banklari, jumladan “Asakabank” misolida tahlil etilganda, xalqaro akkreditiv amaliyotida salmoqli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmogda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron hujjatlar aylanmasini avtomatlashtirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali bu yo‘nalishda yanada yuqori natijalariga erishish mumkin.

Tadqiqot natijalariga asosan, tijorat banklari uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

- elektron akkreditivlarni joriy etish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
- xalqaro tajriba asosida kadrlar salohiyatini oshirish;
- kichik va o‘rta biznes uchun akkreditiv xizmatlarini soddalashtirish va arzonlashtirish;
- UCP 600 va boshqa xalqaro qoidalarga muvofiq ichki reglamentlarni takomillashtirish.

Shu tariqa, xalqaro akkreditivlar amaliyotining rivojlanishi nafaqat banklar faoliyati samaradorligini oshiradi, balki mamlakatning tashqi savdo salohiyatini ham yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar
2. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g’risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 26-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to‘g’risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Bank siri to‘g’risida»gi Qonuni 2005yil 25-aprel.
5. To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risidagi qonun O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 1-noyabrda 2019-yilda qabul qilingan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving 13.04.2020 yilda ro‘yxatdan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida 3229-sonli qarori